FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 29-oktabr | 239-11-155-Q/24 | Dang‘ara tuman hokimligi

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktyabrdagi O‘RQ-642-sonli «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktyabrdagi O‘RQ-641-sonli «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son Qaroriga asosan tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarga 2025-yilda ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. Dang‘ara tumanida belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiyaning tarkibi 1-ilovaga hamda tumandagi korxona, tashkilot, muassasalarda 2025 yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish taqsimoti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun-ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun-ularning kasblari bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun-mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatgichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun-ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruv zahirasiga kiritilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun-ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

oilaviy (maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun-ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

3. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar rahbarlariga Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlar tashkil etilishini ta’minlasinlar;

korxona va tashkilotlar, 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilishi shart;

Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinadi.

4. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 3163, 31 may 2019 yil) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - rejadan ortiq qabul qilingan har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

6. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Usmonov) besh kun muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

7. Belgilansinki, ushbu qaror 2025-yil 1-yanvar kunidan kuchga kiradi va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Dang‘ara tuman hokimining 2023-yil 23-noyabrdagi 227-11-155-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Akramov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Tojixakimov**

Dang‘ara tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
239-11-155-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Dang‘ara tumanida belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiyaning
TARKIBI

1.	R.Akramov	Komissiya raisi, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari
2.	I.Usmonov	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, komissiya mas’ul kotibi
3.	Yo.Abdurasulov	Tuman IIB boshlig‘i
4.	K.Normatov	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
5.	T.Kimsanov	Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i

*Izox: Komissiya tarkibidagi rahbarlar boshqa ishga o‘tgan taqdirda o‘rniga tayinlangan rahbar a’zo hisoblanadi***.**

Dang‘ara tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
239-11-155-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumandagi korxona, tashkilot, muassasalarda 2025 yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish taqsimoti.

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro′yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Инн	Shtat jadvali bo′yicha xodimlarining umumiy soni	2025-yilga zaxiraga qo′yish taklif etilayotgan ish o′rinlari soni	shu jumladan								
					14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Umumiy o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun	**Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun**
1	37-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884465	56	4	1	1	0	2	0	0	0	0	0
2	18-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203178245	75	5	1	1	1	2	0	0	0	0	0

3	40-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884497	60	4	1	1	0	2	0	0	0	0	0
4	21-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884330	38	3	0	2	0	1	0	0	0	0	0
5	1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884157	90	6	1	2	0	3	0	0	0	0	1
6	12-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884251	115	8	1	3	0	3	1	0	0	0	0
7	8-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884212	55	4	0	2	0	2	0	0	0	0	0
8	32-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884419	98	7	1	2	0	3	1	0	0	0	0
9	2-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884164	70	5	1	1	0	2	1	0	0	0	0
10	27-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884379	109	8	1	2	0	3	0	1	0	0	0
11	16-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884290	80	6	1	2	0	2	0	0	0	0	0
12	26-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884362	120	8	1	2	1	4	0	1	0	0	0
13	15-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884283	98	7	1	3	0	3	0	0	0	0	0
14	33-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884426	75	5	1	2	0	2	0	0	0	0	0
15	31-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884402	85	6	1	2	0	3	0	0	0	0	0

16	19-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884315	95	7	1	2	1	3	0	0	0	0	0
17	30-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884394	105	7	0	2	1	3	1	0	0	0	0
18	20-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884323	65	5	1	2	0	2	0	0	0	0	0
19	9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884229	95	7	1	2	0	3	1	0	0	0	0
20	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884196	85	6	1	2	0	3	0	0	0	0	0
21	29-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884386	83	6	1	2	0	2	0	0	0	0	0
22	34-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884434	115	8	1	3	1	3	0	0	0	0	0
23	1-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internati	201816401	65	5	1	1	0	2	1	0	0	0	0
24	36-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884458	65	5	1	1	0	2	1	0	0	0	0
25	28-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203153127	115	8	1	2	1	3	1	0	0	0	0
26	21-Sonli MTT	207090117	38	3	0	2	0	1	0	0	0	0	0
27	13-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884268	65	5	1	1	0	2	1	0	0	0	0
28	39-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884480	75	5	1	2	0	2	0	0	0	0	0

29	38-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884473	74	5	1	1	1	2	0	0	0	0	0
30	10-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884236	85	6	1	2	0	3	0	0	0	0	0
31	17-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884308	70	5	1	2	0	2	0	0	0	0	0
32	22-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206942844	95	7	1	2	0	3	1	0	0	0	0
33	23-sonli Informatika va axborot texnalogiyalari fanlariga ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktabi	206884347	60	4	0	2	0	2	0	0	0	0	0
34	14-sonli chet tillariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta`lim maktabi	206884275	91	6	1	3	0	3	0	0	0	0	0
35	3-sonli Kimyo-biologiya faniga ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktabi	206884172	65	5	1	2	0	2	0	0	0	0	0
36	5-SONLI MTT	207032338	45	3	0	2	0	1	0	0	0	0	0
37	8-sonli MTT	207031710	45	3	0	2	0	1	0	0	0	0	0
38	Tuman tibbiyot birlashmasi	200165010	2067	145	5	63	5	62	5	2	1	0	2

39	2-son kasb-hunar maktabi	200165066	85	6	1	2	0	3	0	0	0	0	0
40	2-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	202121744	46	3	1	1	0	1	0	0	0	0	0
41	35-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884441	61	4	0	2	0	2	0	0	0	0	0
42	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884189	92	6	1	2	0	3	1	0	0	0	0
43	DANGARA TUMANI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO`LIMI	200164914	63	4	1	2	0	2	0	0	0	0	0
44	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	207008096	50	4	0	1	0	2	0	1	0	0	0
45	Dang'ara tumani obodonlashtirish bo'limi	206940997	187	13	2	3	0	6	0	1	0	0	1
46	7-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884204	70	5	1	2	0	2	0	0	0	0	0
47	5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203218241	104	7	1	1	1	3	0	0	0	0	1

48	1-son kasb-hunar maktabi	203348104	86	6	0	2	0	3	0	0	0	0	1
49	27-sonli bolalar musiqa va san`at maktabi	207190364	80	6	0	3	0	2	0	0	0	0	0
50	Dang'ara tumani 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi	207008136	45	3	1	1	0	1	0	0	0	0	0
51	Dang`ara tumani 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi	308914160	60	4	0	2	0	2	0	0	0	0	0
52	19-SONLI MTT	206884315	40	3	0	1	0	1	1	0	0	0	0
53	11-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206884244	65	5	1	2	0	2	0	0	0	0	0
	ЖАМИ:		**6121**	**428**	**45**	**160**	**13**	**184**	**17**	**6**	**1**	**0**	6